
Murojaatlar yechimi ijobiy hal etilmoqda

Aholi bilan doimiy muloqot qilish, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni hal etishning samarali mexanizmi va usullari joriy etilgani mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Xususan, Qo'shtepa tumanida sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilgan fuqarolar qabuli jarayonida, "Shomirza" mahallasi hududidagi Ulug'bek ko'chasini shag'allashtirish yuzasidan murojaat kelib tushgandi. Ayni vaqtda aholiga yanada qulaylik yaratish hamda muammoni ijobiy hal etish maqsadida tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan Ulug'bek ko'chasining 400 metrga yaqin qismi shag'allashtirildi.





2024-10-29 09:30:11